

## **O‘ZBEKISTONNI RAQAMLASHTIRISHGA O‘TKAZISHDA DAVLAT TILINING IJTIMOIIY-LINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

**Mo‘minova Oydin Qurbonovna,**  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.n.,  
O‘zbekiston, Toshkent,  
oydin\_muminova@mail.ru*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston aholisining ijtimoiy-siyosiy hayotidagi raqamlashtirish jarayonida davlat tilining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash haqida so‘z boradi. O‘zbekistonni raqamlashtirish jadal sur‘atlar bilan davom etmoqda. IT texnologiyaning shiddat bilan rivojlanishi tilning tuzilishini o‘zgartirdi. Ushbu maqolada raqamli texnologiya sohasidagi o‘zbek tilining o‘ziga xosliklarini aniqlashning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sabablari hisobga olinadi. Maqola materiallari sifatida ijtimoiy tarmoqlar, davlat portallari, media-kanal, biznes platformalardagi matnlardan to‘plangan til birliklari olindi. Maqolada ijtimoiy lingvistik metodlar: tashqi kuzatish usuli, jamiyatdagi til xususiyatlarini modellashtirishda sinxron tahlil metodi, umumiy lingvistik usullardan (tavsiflash, tahlil qilish, tizimlashtirish) foydalanilgan. Hozirgi o‘zbek tilining holatiga tashqi kuzatish usuli orqali tavsiflandi, o‘zbek tilining geterogen lingvistik muhitidan o‘rin olgan ijtimoiy-lingvistik hodisalar (lingvistik vaziyat, lingvistik ziddiyatlar, tillarning aralashishi, ikki tillilik, ko‘p tillilik, til tanlash, til maqomini tan olish va boshqalar) aniqlandi. IT texnologiyasidan, raqamli tizim mahsulotlarini foydalanish o‘zbek tilining funksional faoliyat ko‘lamini kengaytirishga hissa qo‘shishi isbotlangan. “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturi davlat tili siyosatini amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmasa-da, u davlat tili rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatganligi aniqlandi.*

***Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, muloqot, raqamli tizim, raqamlashtirish, yangi til birliklari, raqamli aloqa.*

**Kirish.** Hozirgi globallashtirish jarayoni va axborot k o‘lami davrida mamlakatimiz va dunyoning boshqa davlatlarida texnika va texnologiyalar rivojlanib, ishlab-chiqarishda yangidan-yangi usullar joriy etilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”[ Mirziyoyev, 2020]. Bugungi kunda IT-texnologiyalari, raqamlashtirish mahsulotlari (xizmatlari) o‘zgarishlar va innovatsiyalarga boy sohaga, inson hayotini osonlashtiradigan qulay va samarali vositalardan biriga aylandi. Ushbu sohadagi o‘zgarishlar tez va jadal odimlash, doimiy o‘zgaruvchanlik xarakteriga ega. “Raqamli O‘zbekiston-2030” davlat dasturi natijasida O‘zbekiston aholisi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-maishiy sohalarda IT-texnologiyalari yutuqlaridan har kuni foydalanmoqda. Biroq, “Raqamli

O‘zbekiston-2030” davlat dasturini hayotga tatbiq etishda o‘zining yutuq va kamchiliklari mavjud. IT texnologiyalari yutuqlari, jamiyatni raqamlashtirish jarayonlari, sun’iy intellektning rivojlanishi, albatta, til tizimiga ham ta’sir ko‘rsatdi, muloqotni virtual darajaga olib chiqdi. Zamonaviy tilshunoslikda “Kiber til” atamasi paydo bo‘lib, kiberlingvistika esa yangi yo‘nalish sifatida qarala boshladi. Covid-19 butun dunyoni qamrab olishi natijasida Pandemiya turli xil raqamli mahsulotlar va xizmatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi va virtual aloqaning shiddat bilan rivojlanishiga turtki berdi. Shuningdek, tilning leksik qatlamida ham o‘zgarishlar yuz berdi: yangi so‘zlar, lingvistik qo‘llanishlar jadallik bilan kirib keldi. Bu hozir pandemiya davrida tilimizga kirib kelgan so‘zlar qo‘llanishda kamaygan bo‘lsa-da, o‘sha davr nuqtayi nazaridan o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Doimiy o‘zgaruvchan raqamli “olamdagi” o‘zbek tilning bugungi holatini hisobga olish, davlat tilining raqamli tizimdagi “jonli hayotini” ko‘rsatadi.

**Materiallar va usullar.** Mazkur maqoladagi ijtimoiy-lingvistik metodlar: tashqi kuzatish metodi orqali yig‘ish usuli, jamiyatdagi til xususiyatlarini modellashtirishda sinxron tahlil usuli, shuningdek, to‘plash, tahlil qilish, tavsiflash, bayon qilish, kuzatish usullaridan foydalanilgan. Ijtimoiy tarmoqlar, davlat portallari, media kanallari, biznes platformalardagi matnlardan to‘plangan til birliklari materiallar sifatida olindi.

**Adabiyotlar tahlili.** Muloqot nazariyasiga oid ko‘plab ilmiy ishlar mavjud, chunki barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarning sohalari kommunikatsiya tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Kommunikatsiya maqsadi, modeli, turi, boshqa xususiyatlariga ko‘ra har xil turlarga bo‘linadi. So‘nggi yillarda raqamlashtirishning ta’siri iqtisodiyot, ta’lim, til o‘rgatish, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, tilshunoslik va boshqa sohalarda jadal o‘rganilmoqda. Virtual muloqot XX asr oxirida boshlanib, hozirgi kunda muloqot jamiyatning ajralmas qismiga aylangan virtual makondir. Raqamli tizimlarning rivojlanishi ishlab chiqish, ijtimoiy hayotda raqamli texnologiyalardan faol foydalanish, virtual muloqot maydoni va foydalanish mukonini oshirmoqda. Raqamli texnologiyaning tilga ta’siri to‘g‘risida birinchilardan bo‘lib Braun universiteti (AQSH) olimi N.S. Baron 1984-yilda “Kompyuter vositachiligida Muloqot tilni o‘zgartirish kuchi sifatida” (Computer Mediated Communication as a Force in Language Change) nomli maqolasini e’lon qildi [Baron, 1984]. Bu sohada chuqur izlanishlar olib boradi va 2010-yilda “Har doim ochiq: Onlayn va mobil dunyoda til” (Always on: Language in an Online and Mobile World) monografiyasini nashr etdi [Baron, 2010]. Internet tilining ingliz tiliga ta’sirini o‘rgangan D. Kristal Internet tilini o‘rganishni alohida ilmiy yo‘nalish

sifatida shakllantirdi [Crystal, 2001]. Tadqiqotchi O.Panyushkina ijtimoiy tarmoqlar tilida ispan tilidagi materiallar asosida o‘zgarishlarni hisobga olgan holda [Panyushkina, 2014], Vol.Chatfield kompyuter sanoati bilan bog‘liq bo‘lgan neologizmlarning til rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tadqiq qildi [Chatfield, 2013]. O‘zbek tadqiqotchilari maqolalarida Internet muloqoti va uning tadqiqiga doir ayrim mulohazalar [Shahobiddinova, Sh. H., Yuldasheva, 2018], Ijtimoiy tarmoqlar tili va uslubi [Malikova, Sharofiddinova], Muloqot va kommunikatsiya jarayoni va muloqot qilish usullari [Urokov] haqida fikr bildirilgan. Butun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari sotsiolingvistik tadqiqotlarning naqadar zarurligini milliy tillar va ingliz tili ekspansiyasi misolida ayon etib qo‘ydi. Milliy tillar lug‘at tarkibiga katta miqdordagi inglizcha so‘zlarning kirib kelishi til siyosatida o‘zgarishlar qilish zarurligini ko‘rsatmoqda.

**Natijalar va muhokama.** Qonun chiqaruvchi organ tomonidan 2015-yil 18-noyabrda O‘zbekistonning raqamli “hayotida” davlat darajasidagi birinchi raqamli xizmat turi qabul qilingan. “O‘zbekiston Respublikasining elektron hukumati” 2015-yilda ishga tushirilgan (egov.uz) portaldan boshlanadi, deyish mumkin. Ushbu portal onlayn davlat xizmatlarini taqdim etadi, onlayn ma’lumot beradi, sayt uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz) xizmatlarni taklif qiladi. “O‘zR “Elektron hukumat” portali davlat tomonidan maqsadli ravishda takomillashtirilib, endilikda onlayn rejimda faoliyat olib bormoqda hamda davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi yana bir qancha portallar faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda davlat boshqaruvini demoklashtirish va fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ular qatorida “Elektron hukumat” tizimini yaratishga alohida e’tibor berildi. Xususan, aholining interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun 2013-yil 1-iyulda Yagona davlat interaktiv xizmatlari portali ([www.my.gov.uz](http://www.my.gov.uz)) ishga tushirildi, 2015-yil 17-martdan esa O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portali ([data.gov.uz](http://data.gov.uz)) Ijro intizomi yagona tizimi – “ijro.gov.uz” foydalanishga topshirildi. Mazkur ishlarning mantiqiy davomi sifatida Qonun hujjatlari ta’sirini baholash tizimini alohida portal ko‘rinishida ishga tushirish edi, bu tizim 2015-yil 1-yanvardan ishga tushgan bo‘lib, dastlab Yagona davlat interaktiv xizmatlari portalining alohida bo‘limida aholi e’tiboriga havola etildi. Ushbu portallarning barchasi IT, raqamli texnologiyalarning natijasidir. O‘zbekistonni raqamlashtirishda muhim ahamiyatga molik bo‘lgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi jamiyatimizning barcha sohalarini qamraydigan, raqamli jamiyat, raqamli mamlakat barcha asosiy sohalarni raqamlashtirish hamda

mamlakatda haqiqiy axborot jamiyatini barpo etishga yo‘naltirilgan maqsadli dastur bo‘ldi.

Ushbu dastur davlat tomonidan amalga oshirilishi davrida o‘zbek tiliga yangi so‘zlar, iboralar, atamalar o‘zlashdi. Ular bugungi kungacha maxsus tilshunoslik asarlariga kirdi, lekin lug‘atlarga hali kirib ulguradi. Davlat tilining hozirgi holatini muhokama qilishda O‘zbekistondagi til bilan bog‘liq holat haqida gapirmaslikning iloji yo‘q. O‘zbekistonda til holatining o‘ziga xos xususiyatlari bor. Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarda “lingvistik holat” atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “language situation - jamiyatda til/tillarning amalda qo‘llanilishi; haqiqiy tarixiy davrda ma’lum bir hududiy ma’muriy tuzilmada (etnik jamoada) ishlatiladigan tillar, tilning “tirik” shakllari, hududiy va ijtimoiy lahjalar, koine va jargonlar yig‘indisi.” Til holatining quyidagi turlari mavjud: Kommunikativ makonda tillarning haqiqiy bo‘liishi demografik va funksionaldir. O‘zbekistonda yashovchi etnik guruhlarining vakillari zamonaviy norasmiy muloqotda ular orasida uch tillilik yuzaga keladi. O‘zbekistonda yashovchi aholi ona tilidan tashqari, davlat, ya’ni o‘zbek tili bilan birga boshqa millat vakillari rus va tojik tillarida ham so‘zlashadi. O‘zbekistonda yashayotgan boshqa millat vakillari o‘z milliy tilini bilishdan tashqari, etnik guruhlar o‘rtasida maishiy ehtiyojlar paytida ular bir vaqtning o‘zida o‘zbek va rus tillaridan foydalanadi. Bunday hodisalar ko‘rsatilgan etnik guruh vakillari hududida geografik joylashuvi, ijtimoiy va maishiy masalalar tufayli shakllanadi. Bu vaziyat ko‘p tillilik yoki polilingvizm (multilingvizm) deb ataladi, ya’ni 1) bir xil darajada bir nechta tilni bilish; 2) muayyan bir hududda bir nechta tillarning mavjudligi. Bundan tashqari, so‘nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalar nafaqat o‘zbek tilida, balki rus va ingliz tillarida ham gapira boshlashdi. Bu globallashtirish jarayoni, ya’ni internetning mavjudligi natijasida YouTube kanalida o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi ko‘p sonli kontent tufayli va aksariyat hollarda ingliz tilidagi 0+ kontentlarni ko‘rish reytingi bo‘yicha eng yaxshisi bo‘lishi asosiy rag‘batlantiruvchi omil sifatida qaraladi. O‘zbekiston qishloqlarida bir tillilik yoki monolingvizm hodisasi rivojlangan, ya’ni til egasi faqat bitta tildan - o‘zbek tilidan foydalanadi.

Global tarmoq insonlarni, xalqlarni va mentalitetlarni bir-biriga yaqinlashtirgandek, uning ham o‘ziga xos salbiy ta’siri va illatlari bor, albatta. Biroq odamlar orasida aloqa asosan internet va mobil telefonda bo‘lganligi bois raqamlashtirish jarayonlarining o‘zbek tiliga ta’siri bo‘lishi tabiiy. O‘zbekistonning til qo‘llash maydoni gomogen va geterogen tillarning birday qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. O‘ziga xos yangi muloqot madaniyati vujudga kelib, hayotimizga singib bormoqda. O‘zbekistonda til siyosatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2020-yil 5-oktyabrdagi 6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bevosita til siyosatini amalga oshirish va rejalashtirish uchun mo‘ljallanmagan bo‘lsa-da, xususan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Lekin bu dasturning davlat tili rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini kuzatish mumkin. “Raqamli O‘zbekiston—2030” strategiyasi ikki dasturni: hududlarni raqamlashtirish va tarmoqlarni raqamlashtirishni nazarda tutib, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli texnologiyalar milliy bozori, axborot texnologiyalari sohasida ta’lim va malaka oshirishni rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiyotning rivojlanishi odamlarning turmush darajasining oshishi bilan o‘lchanadi. O‘zbekistonni raqamlashtirish jarayonining asosiy bosqichlari aynan shu iqtisodiy sohadan boshlandi.

Raqamlashtirish jarayoni munosabati bilan o‘zbek tiliga bir qancha yangi so‘zlar kirib keldi: *raqamli savodxonlik, simsiz aloqa, raqamli davlat, raqamli sanoat, raqamli Ipak yo‘li, raqamli ekotizim, raqamli iqtisodiyot, kibermaydon, kompyuter hamjamiyati, kiberfuqaro, virtual haydovchi, kiber haydovchi, neyron tarmoq, raqamli platforma, raqamli infratuzilma, davlat boshqaruvini raqamlashtirish, raqamli hujjat aylanishi, raqamli transformatsiya, o‘z-o‘zini raqamlashtirish xizmatlari, davlat tuzilmalarining ichki o‘zaro hamkorligi - G2G, fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlar harakati - G2C, biznes bilan o‘zaro aloqa - G2B, raqamli transformatsiya, digital ID, face ID, elektron tijorat, elektron platforma, transchegaraviy savdo, elektron to‘lov, elektron raqamli imzo, elektron pul, mobil portlash (бангунэ), mobil to‘lovlar, raqamli muhit, venchur kapitali, venchur sanoat, blokcheyn, kiberxavfsizlik, onlayn biznes qilish, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, elektron chiptalar tizimi, aqlli maktab, aqlli shahar, aqlli klinika, aqlli ko‘cha chiroqlari, raqamli kun tartibi, onlayn muhit, raqamli ko‘nikmalar, raqamli startap, biznes inkubator, onlayn ish, Smart o‘lchash, front ofis, intellektual transport tizimi, elektron deklaratsiya, internet-banking, 3D-нрунтер, ADSL (assimetrik raqamli abonent liniyasi) kabi.*

Raqamlashtirish jarayonida kiritilgan yangi so‘zlardan –li, -siz sifat yasovchi, -lik, -lash, -lashtirish ot yasovchi qo‘shimchalarning faol qo‘llanilishini kuzatish mumkin. Masalan, *raqamli davlat, raqamli savodxonlik, raqamli ko‘nikmalar, raqamli infratuzilma, raqamli ipak yo‘li, mobil portlash, raqamli hujjat aylanishi, raqamli muhit, raqamlashtirish, simsiz aloqa, kiberxavfsizlik.*

Raqamlashtirish jarayonida o‘zbek tiliga kirib kelgan yangi so‘zlarning ko‘p qismi so‘zlarning birikishi orqali yasalgan. Ingliz tilidan esa asosan atamalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga tarjima qilinmasdan o‘zlashtirilgan. Masalan, onlayn platforma, SMS, PIN-kod, ADSL (asymmetric digital subscriber line) API (application programming interface), O‘zbekiston raqamlashtirishda iqtisodiyot sohasidagi xizmat ko‘rsatish ishlari yetakchilik qilmoqda. Mamlakatimizda *alifmobi*, *uzum ilovalari* IT texnologiyalari yutuqlaridan foydalanib, aholiga bank xizmatlari ko‘rsatishda, onlayn xarid qilish va bank xizmatlarini taklif etmoqda. Hozir O‘zbekiston bankomatlarida 3 tilda xizmat ko‘rsatiladi, asosiysi o‘zbek tilidir. Mobil ilovalarda, umumiy ovqatlanish sohasida o‘zbek tili joriy etila boshladi. Menyularga o‘zbek tili qo‘shilgan. Mashhur mobil ilovalar uchun o‘zbek tilida Yandex xizmati tovushli “Alisa”ni o‘zbek tilida so‘zlashini e‘lon qildi. 2GIS o‘zbek ovozini Yandex Map mobil ilovalariga kiritdi. Til haqida shaxsiy xalq nuqtayi nazaridan davlat tiliga shu paytgacha e‘tibordan chetda qolib kelgan ijtimoiy guruhlarga davlat tili maqomini tan oldirib, xizmat ko‘rsatish o‘zbek tilida bo‘lishi zarurligini ko‘rsatdi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining Ma‘naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti mudiri A.Qirg‘izboyev [kun.uz](http://kun.uz)ga bergan intervyusida, bir yarim yil davomida 35 mingga holat o‘rganilgan bo‘lsa, 70 foizi xorijiy tillarda, yana 10 mingga yaqin e‘lon va peshlavhalar esa davlat tilida, ammo xato bilan yozilganligini, 30 mingga yaqin e‘lon va peshlavhalar davlat tiliga o‘zgartirilganligini ta’kidlaydi. [<https://raqobat.gov.uz/>] Yana bunday til ziddiyatlariga TIV rasmiysi Mariya Zaxarovaning "beixtiyor nutqi" bilan bog‘liq til mojarosi ham sabab bo‘lishi mumkin. Til ziddiyatlari asosida etnodemografik, ijtimoiy, mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy sabablar yotadi. Konfliktologiya sohasida konstruktiv (funktional) konflikt qandaydir bir harakatga bog‘liq aniq qarorlar qabul qilish va munosabatlarni yanada rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin [Sorokina, 2010: 87]. Masalan, yuqorida tilga olingan til ziddiyatlari natijasida o‘zbek tili IT texnologiyalar doirasi kengaydi. O‘zbek tili nafaqat davlat tuzilmalarida qo‘llaniladi, balki tijorat-biznes xizmatlarida ham qo‘llanila boshladi.

Bugungi kunda o‘zbek tili raqamli tizimga kirganligi bois, biznes servis xizmatlari mavjud raqamli texnologiyalardan faol foydalanmoqda va o‘zbek tilining raqamli davri boshlandi. Ommaviy axborot vositalari sohasida sun‘iy intellekt virtual sun‘iy drayverlardan foydalanishni boshladi. Virtual haydovchilar ularni “kiber haydovchilar” deb ham atashadi. Kiber drayverlarni ishlab chiqish Python dasturlash tilida tayyorlangan ([inbusiness.uz](http://inbusiness.uz)). Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda rils, post va hokazolarni o‘zbek tilida tayyorlaydigan neyron tarmoq paydo bo‘ldi. Ayni paytda

neyron tarmoq orqali post tayyorlanmoqda, nashr qilish tendensiyaga aylanib bormoqda. Neuronet yordamida ijtimoiy tarmoqdagi sahifani yuritish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari sotilmoqda.

**Xulosa.** Zamonaviy O‘zbekistonning til holatidagi til muammolarini kommunikativ kuchga ega rus tilining o‘rnini o‘zbek tili muayyan sohalarda bosayotganini payqash mumkin. Bu yerda asosiy kuch o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning o‘zbek tilida xizmat ko‘rsatishini talab qilishlaridir. Agar o‘zbek tilida xizmat ko‘rsatilmasa, ko‘rsatilgan kompaniya xizmatlarining mijozlari keskin kamaydi, ya’ni kompaniya doimiy mijozlarlaridan ayriladi. Til egalarining, bloggerlarning o‘z forumlarini o‘zbek tilida o‘tkazilishini talab qilish natijasida til maqomini tan olgan tadbirkorlar tegishli ravishda o‘zbek tilida xizmatlar ko‘rsatadilar. Ushbu vaziyatdan so‘ng, biznes guruhlarida tilni tan olish amalga oshadi. Tildan foydalanish - tilning maqomini tan olishdir (davlat, hududiy, rasmiy va boshqalar). IT texnologiyalari, raqamli tizim mahsulotlaridan foydalanish esa o‘zbek tilining funksional faoliyati ko‘lamining kengayishiga hissa qo‘shadi. Neyrotarmoqning o‘zbek tilida gapirishi raqamli formatda o‘zbek tili kodlanib, “yashayotganini, ishlayotganini” anglatadi. Raqamli tizimda “yashash” o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish raqamli olamda o‘zbek tilining har bir funksional vazifasini alohida o‘rganishni taqozo etadi. O‘zbekistonni raqamlashtirish jarayonida yangi so‘zlar, yangi qo‘llanishlar, yangi til birliklari paydo bo‘ldi, xususan, maqolada keltirilgan misollar o‘zbek tilining rivojlanish jarayoni haqida birmuncha ma’lumot berdi, deb o‘ylaymiz. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, hozirgi o‘zbek tiliga ko‘plab yangi so‘zlar ingliz tili orqali kirib kelmoqda. XX asrning oxirida o‘zbek tiliga inglizcha so‘zlar rus tili orqali o‘zlashgan bo‘lsa, bugungi kunda ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilayotganini, ya’ni rus tilining “donor til” vazifasi susayganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, yoshlar orasida kundalik hayotda inglizcha so‘zlarni qo‘llash urfga aylanish holatlari ko‘paymoqda. “Raqamli O‘zbekiston” davlat dasturi Raqamli tizimga o‘zbek tilini joriy etish, umuman, raqamli texnologiyalar O‘zbekiston xalqi hayotiga jadal kirib borishi uchun boshlang‘ich nuqta bo‘ldi. Mazkur dastur davlatning til siyosatini amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmasa-da, til rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan davlat dasturidir. Raqamli tizimda o‘zbek tilining kommunikativ funksiyasini chuqur o‘rganish davlat tilini kompyuterlashtirish, uning jahon miqyosidagi mavqeyi va ahamiyatini oshirishga hissa qo‘shadi deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baron N. S. Computer Mediated Communication as a Force in Language Change. Visible Language, 1984, 18(2), 118-141.  
Baron N. S. Always on: Language in an Online and Mobile World. Oxford University Press, 2010, 304p. DOI: <https://doi.org/10.1093/>
2. Crystal, D. Language and the Internet. Cambridge, UK: Cambridge University Press, 2001, 272p.
3. Madvaliyev A. va b. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati. –T.: Shaffof, 2021.
4. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.
5. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son.
6. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.
7. Panyushkina, O. Change of language under the influence of social networks (On the material of the Spanish language). Almanac of Modern Science and Education, 2014, 3(82), 133-135.  
Сорокина Е.Г. Конфликтология в социальной работе: учеб. пособие для студ. высш. учеб. Заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2010.
8. Chatfield, T. The 10 best words the internet has given English. Gardien. 2013, URL:<https://www.theguardian.com/books/2013/apr/17/tom-chatfield-top-10-internet-neologisms>.
9. Shahobiddinova, Sh. H., Yuldasheva, Sh. X. (2018). Internet muloqoti va uning tadqiqiga doir ayrim mulohazalar. Ilmiy xabarnoma, № 2, pp. 85-88.
10. Malikova G., Sharofiddinova M. Ijtimoiy tarmoqlar tili va uslubi. innovations in technology and science education 2.10 (2023): 152-9.
11. Urokov X. Muloqot va kommunikatsiya jarayoni. Innovation: the journal of social sciences and researches. Volume 1, issue 4, 2023.